

AMIRIY IJODIDA IRFONiy ISTILOHLAR TALQINI

Musharrafxon Imomaliyeva Ilhomjon qizi

O‘zRFA doktoranti

E-mail: imomaliyevamusharrafxon@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amiriy ijodidagi diniy-tasavvufiy istiloh-tushunchalarning badiiy talqinlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, g‘oya, istiloh, timsol, an‘ana, talqin, mahorat.

Sharq mumtoz adabiyotini diniy-tasavvufiy g‘oyalardan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘tmish adabiyotiga islomiy g‘oyalar va irfoniy qarashlar shu qadar singib ketganki, bu jarayon, birinchidan, o‘sha davrdagi diniy muhit, tarbiya hamda tariqat odoblari haqida ma‘lumot bersa, ikkinchidan, adabiy hayotda diniy-axloqiy aqidalar, tasavvufiy g‘oyalar ustun bo‘lganligini ko‘rsatadi. Diniy-axloqiy qarashlarda, pand-nasihad, shoirning gunohlardan tavba-tazarru qilishi, Yaratganga munojoti ustun bo‘lsa, tasavvufiy qarashlarda, pir-muridlik munosabatlari, lirik qahramon (oshiq)ning Haq vasli (ma‘shuqa)ga intilishi, Yaratganga muhabbat bog‘lash orqali komillik kasb etish kabi jihatlar o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan, Amiriy lirik merosini mazmun-mohiyatiga ko‘ra shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Hamd, na‘t va munojotlar.
2. Tasavvufiy-irfoniy she‘rlar.

Ta‘kidlash kerakki, hamdu na‘t va munojotlar bilan boshlash mumtoz adabiyotning an‘anaviy jihati, o‘ziga xos xususiyati hisoblangan. Zero, hamd va na‘tlar bandaning ojizligi, toabad Yaratganga muhtojligini izhor qilish, Allohga va Payg‘ambar (s.a.v.)ga yaqin bo‘lish hamda Rasululloh (s.a.v.) sunnatlariga sadoqat izhor etish orqali ommani tarbiyalashdan iborat bo‘lgan [1,5-7]. Munojotlar mazmunini esa, ibodat, qalb xotirjamligi, kasallik, o‘lim, qabr azobi, qiyomatdagi turli holatlar tashkil etib, bu orqali Allohga iltijo qilib, Undan o‘z gunohlari uchun istig‘for aytib, imon so‘raydi. Munojotlar shoirning o‘zi uchungina emas, hatto bu she‘rni o‘qigan, tinglagan kishi uchun ham qalb muolajasi, ko‘ngil oynasini tiniqlashtiruvchi, imonni poklovchi bir vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Muhabbat mamlakatining amiri” bo‘lmish Amiriy ijodida ham bu jihatlar tasavvufiy-irfoniy g‘oyalar uyg‘unligida yuqori darajada tarannum etiladi va o‘ziga xos falsafiylik kasb etadi.

Vasl ummidi mani mahzunga imkon yo‘qki bor,

San – g‘aniy, man – benavo, san – podshosan, man – gado [2,40].

Ishq mulkining Amiridur gadoyi dargahing,

Jannat ul-ma’voyi ko‘yingdin topib rayhoni rih [2,70]

Shoirning umidi Allohning visoliga yetishish. Bu umid yo‘lida mahzunlikka imkon yo‘qligi, oshiqning gado qalbi Yorning dargohida ishq mulkining amiri bo‘lish orzusini so‘fiyona bayon etmoqda.

Irfoniy she‘riyatda ma’shuqa – shoh, oshiq – gado, ma’shuqa – beniyoz, oshiq – niyozmand sifatida tasvirlanadi. Shuning o‘zi bu ishq haqiqiy mahbubaga bag‘ishlanganligiga dalolat qiladi. Ilohiy ishq olamida shohlar gadoyu gadolar shoh bo‘lishi mumkin. Amiriyning keltirilgan baytlarda ma’shuqani shohu o‘zini gadoga nisbat berishi, bu yo‘lda hatto ishq mulkining amiri ham haqiqiy mahbuba dargohining gadosi ekanligini ta’kidlashi aynan tasavvufiy qarashlar mahsulidir.

Boborahim Mashrab lirik merosida, asosan tavhid g‘oyasi uchun ma’naviy kurash olib borgan ilohsevar oshiq obrazi “junun”, “jonon”, “yor”, “may”, “ma’shuq”, “parvona” kabi majoziy tushuncha va timsollar orqali ifodalanishini ko‘rganmiz. Mashrab “hurfikr Nasimiy va mashhur so‘fiy va avliyo Mansur Hallojga kuchli e’tiqod qo‘yib, ularning o‘zini haroratli shogirdi deb hisoblagan” [3,17]. Ayniqsa, u o‘z lirik qahramoni bilan qo‘shilib, “men ichgan may, bu oddiy may emas, bu vahdat mayi bo‘lib, bu maydan ichganlar mashhur mutasavvif Mansur Halloj kabi dorga osilsa ham armonim yo‘q, u baxtli, chunki vahdat mayini ichish bilan uning vujudi ilohiyot ila birlashadi” [3,18] deb, Halloj yo‘lidan yuradi. Bu holatni Amiriyl ijodida ham uchratamiz. Xususan:

*Muhabbat kishvarida halqai zulfungga osilsam,
Junun ahli degay Mansurdek doring erur ahsan! [2,261]*

*Vaslidin dam urg‘on oshiqlarni o‘ldurmush Amir,
Topti bu Mansurlar hangomasidin dor zeb [2,57].*

Ma’lumki, tasavvufdagi asosiy talablardan biri ishq tushunchasi bo‘lib, “u insonni ma’rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, holi etuvchi muqaddas olov” [4,48]dir. Amiriyl ham ana shu “muqaddas olov”dan “jazba” olgan oshiqdir. Ana shu “jazba” tekkan oshiqlik va uning ruhiy holati lirik misralarda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan:

*Ishq yo‘lida fano o‘lmak erur ayni baqo,
Kimki o‘ldi xanjari noz ila, qurbon topti jon [2,280].*

*Muhabbat shohig‘a tadbiri aqlu hush emas hojat,
Junun shahri Amiriman menu Majnun davr arbobi [2,351].*

Dunyoga mehr bermaslik, uning o‘tkinchi hoyu havas, nag‘malariga aldanmaslik, ruhni pok saqlagan holda Yaratganga munosib banda bo‘lish kabi falsafiy-axloqiy g‘oyalar ham ilgari suriladi:

*Podshahliq suvratida sa‘b o‘lur darveshliq,
Xosa ul shoheki, bu suvratdurur siyrat ango.*

*Faqr yo‘lin shohrohi saltanatdin xush bilur,
Ul Amirekim erur darveshliq niyat ango [2,50].*

Tasavvuf falsafasida darvesh shohdan ustun qo‘yiladi. Shuning uchun ko‘p shohlar darveshlikni orzu qilganlar. Bunda shohning zohiran shoh bo‘lgani holda, botinan darvesh bo‘lishi taqozo qilinadi. Amiriyning surati siyratiga muvofiq kelgan shohni ulug‘lashi shundan. Ayni paytda darveshlik niyatidagi shoh uchun faqr yo‘li saltanatdan afzaldir.

Ma‘lumki, Yusuf (a.s.) go‘zalligi Sharq adabiyotida keng kuylangan va turli janrlarda asarlar bitilgan. Ayniqsa, oshiq (muallif)lar ma‘shuqa husnu jamolini Yusuf go‘zalligiga tashbeh etgan. Xususan, Amiriy ham bu an‘anadan o‘z lirik merosida keng istifoda etib, o‘zini “Yusufi soniy” deya e‘tirof etadi. Payg‘ambarlarga xos sifatlarni talmeh san‘ati orqali ma‘shuqa ta‘rif-tavsifiga ko‘chirgan. Ya‘ni:

*Amiri husnsan, dodim eshitgil, Yusufi soniy,
Bu ummid ila qurdum shohrohing uzra bir koza [2,305].*

Amiriy lirik merosida ham Mashrab singari oshiqlik, Alloh muhabbatiga shaydolik, ishqdan sarmast junun sifatida Unga dilroz aytish ustunlik qiladi. Xususan, “Qo‘zg‘olmasun” radifli g‘azalida:

*Ishq mulkin shohidurman, zinhor ahli junun
Chekmayin ohim alam, bemarhabo qo‘zg‘olmasun.*

*Man gadoni sarvqadlarga murid o‘ldi dema,
Zuhd ahli qahr ila olib aso, qo‘zg‘olmasun.*

Chekma oshiqlarni o‘lturmoq uchun tig‘i sitam,

To yana g‘avg‘oyi dashti Karbalo qo‘zg‘olmasun.

Husn Amiri, har qulingdur bir jahongiri zamon,

Xasm torojini qo‘zg‘olsunmu yo qo‘zg‘olmasun.

Diniy-irfoniy xarakterdagi g‘azallar o‘zida yuksak axloqiy sifatlarni mujassam etadiki, insoniylikdan saboq beradi, Allohga munosib banda bo‘lib, umrni mazmunli o‘tkazishga da‘vat etadi. Umuman olganda, Amiriy lirik merosining mazmun-mohiyatini diniy tushuncha va qarashlar hamda tasavvufiy g‘oyalardan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyoviylik diniylik bilan uyg‘unlikda olinib, o‘ziga xos axloqiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Amiriy o‘z tasavvufiy qarashlarining badiiy talqini uchun ishq, oshiq, visol, tavhid, junun, may, ma‘shuq, so‘fiy, vahdat, junun ahli, tasavvuf, ma‘rifat, jazba, fano, baqo, junun shahri, darvesh, faqr yo‘li, ahli junun, zuhd ahli sham va parvona, surat va siyrat, shoh va gado kabi ko‘plab irfoniy istiloh va timsollardan foydalanadiki, ularning ma‘no qirralarini ochib berish shoir she‘rlarini butun mazmun-mohiyati bilan keng va chuqur tushunish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Amiriy nazmiy merosida ilgari surilgan g‘oyalarning mazmun-mohiyatini ochib berish, diniy-axloqiy tomonlarini ko‘rsatish va bu orqali tarbiyaviy jihatni amalga oshirish bugungi tadqiqotimiz oldidagi muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatulloh N. Soz bilan suhbat. – T.: “Navro‘z”, 2015. – B. 5,7.
2. A m i r i y. Devon. Ikki jildlik. I. O‘zbekcha she‘rlar (Nashrga tayyorlovchilar: A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). II. Tojikcha she‘rlar (Nashrga tayyorlovchilar: Z.Qobilova, O.Davlatov). – Toshkent: “Tamaddun”, 2017.
3. Hoshimxonov N. Boborahim Mashrab va XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy-axloqiy fikr rivoji. Avtoreferat. Samarqand. 2018. – B 17.
4. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnah r –O‘zbekiston, 2009. – B 43.